

CHET EL VALYUTASINING MOLIIYA TIZIMIGA TA'SIRI

Ergashev Jasurbek Shuhrat O'g'li

Ilmiy rahbar: Rahimova Xavaxon Usmanjanovna

Bank va moliya akademiyasi

Bank ishi kafedrasi dotsenti

Annotatsiya

Tezida valyuta kursi, O'zbekistondagi valyuta siyosatidagi o'zgarishlar, shuningdek, valyuta kursi siyosatining zamonaviy moliya-valyuta tizimidagi ko'rsatkichlarning iqtisodiy o'sishga ta'siri batafsil keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: valyuta kursi, pul o'tkazmalari, valyuta siyosati, moliya- valyuta tizimi, iqtisodiy o'sish.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti bilan bog'liq jarayonlarni boshqarishda, milliy valyutaning xalqaro mavqeini belgilashda va mamlakatning joriy hamda kelajakdagi iqtisodiy munosabatlari tizimida valyuta siyosati muhim ro'l o'ynaydi. U iqtisodiy rivojlanish barqarorligini ta'minlash, ishsizlikningoldini olish va inflatsiyani jilovlash, to'lov balansining aktivligini saqlabturishda makroiqtisodiy siyosatning muhim va ajramas qismi hisoblanadi. Oxirgi yillarda O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyati jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Xorijiy sarmoyalar ishtirokida yangidan-yangi qo'shma korxonalar vujudga kelib tashqi iqtisodiy faoliyatga qo'shilmoqda. Tabiiyki, mazkur tashqi iqtisodiy munosabatlar ishtirokchilari xorijiy sheriklari oldidagi majburiyatlarini bajarish uchun xorijiy valyutani sotishyoki sotib olishga kuchli ehtiyoj sezmoqdalar. Mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan va tashqi iqtisodiy faoliyat shakllanishida asosiy o'rindaturuvchi valyuta qonunchiligi doimo davomiy rivojlanish va takomillashishda bo'lmog'i lozim.

ASOSIY QISM

Har qanday mamlakatda valyuta muomalasining haddan ziyod ma'muriy tartibga solinishi alohida tarmoqlar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun imtiyoz hamda preferensiyalarning kam samarali tizimini asossiz ravishda shakllantirishga yo'l



ochadi. Biznes yuritishda teng bo'lmagan shart-sharoitlar vujudga kelishi esa raqobatning bozor tamoyillari buzilishiga olib keladi. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish, tovarlar va xizmatlar eksportini oshirish, umuman, mamlakat iqtisodiy rivojlanishida to'sqinlik qiluvchi omilga aylanadi. Yuqoridagi omillarni hisobga olgan holda malakatimizda qator qonunlar, farmonlar qabul qilindi.

Pul o'tkazmalari asosan xorijiy valyutada amalga oshirilgani uchun ularning valyuta bozoriga va umuman valyuta munosabatlarga sezilarli ta'sir etuvchi omil sifatida qarash mumkin.

Xalqaro moliya munosabatlari rivojlanishida valyuta tizimining samarali tashkil etilishi va uning barqarorligi muhim o'rin tutadi. Valyuta tizimi deganda, valyuta munosabatlarini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy shakli tushuniladi. Valyuta tizimining holati mamlakatda valyuta munosabatlarini boshqarish va tartibga solish jarayoniga bevosita bog'liq bo'ladi.

Valyuta tizimining uchta asosiy shaklini ajratib ko'rsatish mumkin [4]:

Milliy valyuta tizimi - ma'lum bir mamlakat hududida valyuta munosabatlarini tashkil etish, tartibga solish bilan bog'liq tadbirlar majmuasini ifodalaydi;

Mintaqaviy valyuta tizimi - muayyan bir mintaqada doirasidagi mamlakatlar tashabbusiga ko'ra tashkil etilgan valyuta tizimini ifodalaydi.

Jahon valyuta tizimi - mamlakatlar o'rtasidagi valyuta munosabatlarini amalga oshirish uchun tashkil etilgan, instrumentlar, shartnomalar, tartib- qoidalar va tashkilotlarning majmuasidir.

Jahon valyuta tizimining asosiy vazifasi, xalqaro savdo jarayonida va turli valyutalardagi hisob-kitoblarda xalqaro valyuta likvidligini ta'minlashdan iborat.

Jahon valyuta tizimi quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

- tartibga solish - valyutalar o'rtasidagi munosabatlarga ta'sir ko'rsatuvchi to'lov balansida yuzaga keladigan nomutanosibliklarni bartaraf etish;
- likvidlilik - zaxira birliklarini aniqlash hamda to'lov balansining nomutanosibliklarini qoplash uchun ularni qo'llash imkoniyatlari va tashkil etish shakllarini belgilash;
- boshqarish - xalqaro moliyaviy institutlarni tashkil etish va ularning vakolatlari orqali hisob-kitoblarning uzluksizligini ta'minlab borish.

Jahon valyuta tizimining asosiy maqsadlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- mamlakatlar o'rtasidagi xalqaro hisob-kitoblarning uzluksizligini



ta'minlash;

- mamlakatlar milliy valyutasi barqarorligini ta'minlashni qo'llab-quvvatlash;
- jahon xo'jaligining turli iqtisodiy tizimlari o'rtasida samarali mehnat taqsimotini ta'minlash;
- jahon ishlab chiqarishi umumiy hajmining o'sishiga va aholi bandlik darajasining oshishiga erishish;
- milliy iqtisodiyotlarda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash;
- inflyatsiyani jilovlash va tashqi iqtisodiy muvozanatni ushlab turish va boshqalar.

Valyuta tizimlari muayyan elementlarni o'ziga qamrab olgan holda faoliyat yuritadi. Mamlakatlar o'rtasidagi ikki tomonlama iqtisodiy munosabatlarning ko'ptomonlama munosabatlar sifatida rivojlanishi bilan jahon valuta tizimining ahamiyati yanada orta boshladi. Chunki mamlakatlar o'rtasidagi xalqaro savdo, kredit, investitsiya va kapital harakati bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy munosabatlar jahon valuta tizimi doirasida belgilangan muayyan tamoyillar asosida amalga oshirilardi. Ko'pgina mamlakatlarda qat'iy belgilangan valyuta kurslari o'rniga suzuvchi valyuta kurslarini joriy etish valyuta intervensiyasini o'tkazishdagi yirik xarajatlarga qaramasdan ularning barqarorligini ta'minlamadi. Ushbu rejim valyuta spekulyatsiyalari, tasodifiy kapital ko'chishiga barham berish, turli mamlakatlarda inflyatsiya sur'atlari va to'lov balansini tezda boshqarishni ta'minlashga qobiliyatsiz bo'ldi. Bir qator mamlakatlar milliy valyutalarini boshqa valyutalarga bog'lash holatini davom ettirdilar [5].

Shu o'rinda "Rivojlanayotgan davlatlarga g'arb valyuta siyosati ta'siri haqida so'z borganda, shu davlatlar rasmiy invalyuta zaxiralarining 95 % oltidavlat valyutasiga to'g'ri keladi:

- AQSh dollari (67,5%), GFR markasi, yapon ienasi, funt sterling, Shveysariya va Fransiya franki 90%ga yaqin rivojlanayotgan mamlakatlar o'z pul birligining AQSh dollari, Fransiya franki, SDRga nisbatan o'zgarmas kursini ushlab turibdi. G'arb davlatlari foiz stavkasining xalqaro va milliy kapital bozoridagi darajasi rivojlanayotgan davlatlarning tashqi qarzlar bo'yicha to'lovlariga ta'sir etadi. Yuqoridagi misollardan ma'lum bo'ldiki, rivojlanayotgan davlatlar rivojlangan davlatlarning milliy valyuta ko'rsatkichlarining barqarorlashuvidan manfaatdor. Bunda asosiy konvertirlanadigan valyutalarning milliy valyutani siqib chiqarish jarayoni kuzatiladi. Bunda rivojlangan davlatlar valyuta siyosatining



rivojlanayotgan davlatlar valyuta siyosatiga kirib borishi kuzatiladi. Bu jarayon albatta, rezidentlarga chet el valyutasida shartnomalar tuzish ruxsat etilgan davlatlardagina amalga oshadi.

XULOSA VA MUNOZARA

O‘zbekiston iqtisodiy xamkorlikning nufuzli xalqaro tashkilotlari - Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro taraqqiyot va tiklanish banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, xalqaro mexnat tashkiloti, Yevropa taraqqiyot vataklanish banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Shanxay xamkorlik tashkiloti, Birlashgan millatlar tashkiloti va boshka ko‘plab tashkilotlarga qabul qilindi, ko‘plab mamlakatlar bilan eksport va import operatsiyalarini amalga oshirib kelmoqda. Valyuta siyosatini takomillashtirish hamda valyuta kursi tebranishlarini normallashtirish orqali mamlakatdagi eksport qiluvchilar va investorlarga qulayliklar yaratish. Eksport va investitsiyalar hajmining o‘shishi iqtisodiy o‘shishga olib kelishini nazarda tutiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi O‘RQ-573-son Qonuni// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi ,21.04.2021- y., 03/21/683/00375-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2021 y., 06/21/6217/0409-son
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2017-yil 2- sentabrdagi “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora- tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5177-sonli Farmoni// Qonun hujjatlarima’lumotlari milliy bazasi, 28.09.2020-y., 06/20/6075/1330-son
4. Sattorov, B. K., & Allayarov, S. R. (2017). Jahon integratsiya jarayonlari sharoitida O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishi. Fan, texnologiya va ta’lim, 1(5 (35)), 98-100.
5. Bekmurodov A.Sh., Jumaev N.X. (2019). Valyuta siyosatini erkinlashtirish sharoitida to‘lov balansini tartibga solishning konseptual jihatlarini//“UzBridge” elektron jurnali, I – son may, 2019 yil 67-70 sahifalar.

